

AUDIO ASARLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**Saydazimov Asroriddin Tohirjon o'g'li***Alisher navoiy nomidagi toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada audio asarlar asosida o'quvchilarga esse yozishni o'rgatish va uni ta'lim jarayonida tizimli yo'lga qo'yish masalasi nazariy va amaliy asosda tadqiq etilgan. Esse yozish kompetensiyasining zamonaviy talablari ochib berilgan, keyinchalik audio materiallarning ta'siri va afzalliklari tahlil qilingan. Jahon tajribasiga tayangan holda, multimodal yondashuvning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Maqola yakunida esa pedagogik va ilmiy-innovatsion takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston ta'lim tizimida audio vositalar yordamida esse yozish ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tilida: audio asar, esse yozish, tinglab yozish, multimodal yondashuv, interaktiv metod, yozma nutq, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В статье теоретически и практически исследована методика обучения написанию эссе на основе аудиоматериалов. На основе зарубежного опыта и экспериментального подхода обоснована эффективность аудиосредств в развитии письменной речи учащихся. Даны научные предложения по внедрению данной методики в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: аудиопроизведение, написание эссе, аудирование с последующим письмом, мультимодальный подход, интерактивный метод, письменная речь, эффективность обучения.

Annotation. This article explores the methodology of teaching essay writing based on audio materials from both theoretical and practical perspectives. Drawing on international experience and experimental research, it demonstrates the effectiveness of audio tools in developing students' writing skills. Scientific recommendations are provided for implementing this method within the Uzbek education system.

Key words: audio text, essay writing, listening-to-writing, multimodal approach, interactive method, written speech, educational effectiveness.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy ifoda ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, esse yozish – bu nafaqat til va adabiyot fanlaridagi muhim topshiriq turi, balki shaxsning mantiqiy tafakkuri, emotsional-intellektual holatini va dunyoqarashini aks ettiruvchi nutqiy faoliyat shaklidir. Shu bois, esse yozishni

samarali va tizimli o'rgatish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, xususan, audio materiallarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Audio asarlar – bu tinglab qabul qilinadigan, badiiy va informatsion mazmunga ega bo'lgan, turli formatdagi ovoqli mahsulotlar bo'lib, ular o'quvchilarda eshitish orqali tushunish, obrazlarni tasavvur qilish va muallif g'oyasini sezish, o'rganish va tahlil qilish kabi psixolingvistik jarayonlarni faollashtiradi. Bugungi kunda audiokitoblar, dramatik sahnalar, podkastlar va radio spektakllar nafaqat estetik tarbiya, balki til o'rganish va yozma nutqni rivojlantirishda ham muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, esse yozish jarayonida audio asarlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, izchil va badiiy ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”g 2020-yil 14-dekabr 781 sonli qarorida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va adabiy tafakkurini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish metodikasini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Bu esa audio vositalardan foydalanishga asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini tug'diradi.

Dunyo miqyosida ham ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQShdagi “Audible Education” dasturi, Buyuk Britaniyada “BBC Learning” platformasi orqali badiiy asarlarni tinglab tahlil qilish va yozma ifoda qilish ko'nikmalarini shakllantirish tajribasi bunga yaqqol misoldir. Bundan tashqari, audiopsixologiya, psixolingvistika va didaktika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ham tinglab yozish kompetensiyasining keng imkoniyatlarga ega ekanini isbotlamoqda.

Ushbu maqola doirasida o'rganilgan audio asarlar asosida esse yozishni o'rgatishning nazariy, metodik va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, ta'lim tizimiga audio asosli yondashuvni joriy etish, bu orqali yozma nutqni rivojlantirish, o'quvchining fikrni mustaqil shakllantirish salohiyatini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Maqolaning maqsadi – o'rganilgan audio asarlar asosida esse yozishni o'rgatish jarayonini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslab berish, hamda uni ta'lim tizimida tizimli yo'lga qo'yish taklifini ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Esse – bu muallifning shaxsiy fikr va mulohazalarini erkin tarzda ifodalovchi nasriy asar bo'lib, unda muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan individual yondashuv aks etadi. Esse janri G'arb adabiyotida, xususan, fransuz yozuvchisi Mishel Monten (1533–1592) tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u o'zining “Essais” (Sinovlar) nomli asari orqali bu janrning asoschisi hisoblanadi.

Esse janrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Erkin kompozitsiya: Esse qat'iy tuzilma talab qilmaydi, muallif o'z fikrlarini erkin tarzda bayon qiladi.

Subyektivlik: Muallifning shaxsiy fikr, munosabat va hissiyotlari asosiy o'rinda turadi.

Tahliliy yondashuv: Muammo yoki mavzu yuzasidan chuqur tahlil va mulohazalar yuritiladi.

Badiiylilik: Til vositalaridan samarali foydalanish orqali asarga badiiylilik baxsh etiladi.

O'zbek adabiyotida esse janri nisbatan yangi bo'lsa-da, u tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilar o'z asarlarida esse janrining o'ziga xos namunalarini yaratganlar. Shukur Xolmirzayev esse haqida shunday deydi: "Esse yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi".

O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida esse janriga oid tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, U.Normatov, N.Rahimjonov kabi olimlar esse janrining o'ziga xos xususiyatlari, uning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritganlar. Adabiyotshunov N.Rahimjonov "Esse va badi'achlik bo'yicha olib borgan tadqiqotlaridan e'tiboran shoir va yozuvchilarning hayot va adabiyot masalalariga doir adabiy o'ylari - badealardan iborat katta xirmon ko'tarildi deb e'tirof etish mumkin".

Audio asarlar – bu tinglab qabul qilinadigan, badiiy va informatsion mazmunga ega bo'lgan, turli formatdagi ovoqli mahsulotlar bo'lib, ular o'quvchilarda eshitish orqali tushunish, obrazlarni tasavvur qilish va muallif g'oyasini sezish kabi psixolingvistik jarayonlarni faollashtiradi.

Audio asarlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Dramatizatsiyalangan hikoyalar: Badiiy asarlarning sahnalashtirilgan audio variantlari bo'lib, ular tinglovchiga voqealarni jonli tasavvur qilish imkonini beradi.

Badiiy podkastlar: Muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan muallifning fikr va mulohazalari audio shaklda taqdim etiladi.

Audiokitoblar: Kitoblarning professional ovoqli o'qilishi bo'lib, ular o'quvchilarga matnni eshitish orqali tushunish va tahlil qilish imkonini beradi.

Audio asarlar o'quvchilarning tinglab tushunish, tahlil qilish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, ular o'quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini boyitish va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy didaktikada multimodal yondashuvlar, ya'ni o'quvchining eshitish, ko'rish, his qilish va anglash orqali o'rganishini ta'minlaydigan usullar alohida o'rin egallamoqda. Audio asarlar yordamida esse yozishga o'rgatish ham shunday yondashuvlardan biri bo'lib, u o'quvchilarning nafaqat yozma nutqini, balki eshitib tahlil qilish, nutqiy estetikani tushunish va obrazli fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

1. "Tingla – tushun – yoz" modeli

Ushbu model uch bosqichli ta'lim strategiyasiga asoslanadi:

1. Tingla – o‘quvchilarga dramatik hikoya, audiokitob yoki podkastdan parchalar tinglatiladi.

2. Tushun – tinglangan material ustida muhokama, asosiy g‘oyani tahlil qilish, obrazlarni baholash ishlari amalga oshiriladi.

3. Yoz – tinglangan material asosida esse yozish vazifasi beriladi.

Ushbu model doirasida quyidagi didaktik maqsadlar amalga oshiriladi:

Muallif g‘oyasini tushunish va uni talqin qilish.

Obrazlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

Shaxsiy munosabat bildirish va tahliliy fikr yuritish.

Estetik baho berish asosida individual yondashuv shakllantirish.

2. O‘rta va oliy ta‘lim muassasalarida tatbiq etish

O‘rta maktabda:

8–10-sinflarda qisqa hikoya yoki ertak asosidagi audio materiallar (3-5 daqiqalik) tanlanadi.

Tinglashdan so‘ng savol-javob va tahlil mashqlari beriladi.

“Siz asar qahramoni o‘rnida bo‘lganingizda qanday harakat qilgan bo‘lardingiz?” kabi esse topshiriqlari tuziladi.

Oliy ta‘limda:

Klassik yoki zamonaviy nasr asarlari audioversiyalari tanlanadi.

Murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzular ustida esse yozish mashqlari bajariladi.

Tahliliy, polemik yoki problematik esse janrlari asosida topshiriqlar tuziladi.

3. Dars ishlanmalari (namuna)

Dars mavzusi: Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining dramatishtsiyalangan parchasini tinglash asosida esse yozish

Dars bosqichlari:

1. Kirish: O‘quvchilarga tarixiy roman va uning yozilish davri haqida qisqacha ma‘lumot beriladi.

2. Tinglash: Romandan 5–7 daqiqalik dramatishtsiyalangan sahna audio shaklda tinglatiladi.

3. Tahlil: Qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji va muallif pozitsiyasi muhokama qilinadi.

4. Yozish: “Oila fojiasi” mavzusida tahliliy esse yozish topshirig‘i beriladi.

5. Baholash: Esse quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Muallif g‘oyasini to‘g‘ri anglash;

Fikrning izchilligi va mantiqliligi;

Til boyligi va grammatik to‘g‘rilik;

Shaxsiy yondashuv va badiiy ifoda.

4. Metodik tavsiyalar

Audio asar sifatida talaffuzi ravon, emotsional ohang bilan o‘qilgan namunalarni tanlash muhim.

Tinglash oldidan savol yo'llarini berish o'quvchilarning diqqatini asosiy fikrlarga yo'naltiradi.

Tinglashdan so'ng klaster, fishbone, insert kabi grafik tahlil usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilarni tahliliy fikrga olib kirish uchun "Agar siz qahramon o'rnida bo'lsangiz..." kabi shartli vaziyatlar yaratiladi.

Baholashda nafaqat grammatika, balki mazmun va tahliliy yondashuv ustun turadi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda esse yozish o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va muloqot madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, multimodal metodikalar, ya'ni matn, audio, video, grafik ma'lumotlardan birgalikda foydalanish orqali esse yozishga o'rgatish keng qo'llanmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida o'quvchilarni esse yozishga o'rgatishda "Active Listening and Critical Writing" modeli keng tatbiq etiladi. Bu modelga ko'ra, o'quvchilarga dastlab muayyan mavzudagi podkast, radio eshittirish yoki intervyu tinglatiladi, so'ngra ular:

asosiy g'oyani ajratib olish,

shaxsiy munosabat bildirish,

tahliliy xulosalar chiqarish asosida esse yozishadi.

Kornell universitetida olib borilgan tadqiqotda tinglab yozilgan esselar ko'proq ijodiylik va individual yondashuv ko'rsatganini aniqlagan (Brown, 2021).

Buyuk Britaniya maktablarida "Literature through Audio" dasturi asosida ingliz adabiyotidan asarlar audio shaklda tinglatilib, ularning asosida reflektiv esse yozishni tajriba sifatida amaliyotda sinab ko'rishgan. Bu metod o'quvchining emotsional reaksiyasi, shaxsiy talqini va tajribasini yoritish orqali yozishni rag'batlantiradi.

Cambridge Assessment Research markazining tadqiqotida aytilishicha, audio asosida yozilgan esselar nafaqat emotsional jihatdan boy bo'ladi, balki muallif pozitsiyasini aniq ifodalaydi.

Sharqiy Osiyoda ta'limda texnologik vositalar keng qo'llaniladi. Janubiy Koreyada "Audio-narrative response writing" usuli bo'yicha, o'quvchilarga qisqa audio hikoyalar tinglatilib, ularning asosida "o'zim bilan bog'layman" yondashuvi orqali esse yoziladi. Bu metod orqali o'quvchilar eshitgan voqea va o'z hayotidagi tajribalarni bog'lab, shaxsiy asoslangan esse yaratadi.

Yaponiya maktablarida esa har haftalik "audio writing session" darslari tashkil etilib, ularda podkastlar asosida esse yozish va og'zaki taqdimot qilish birgalikda olib boriladi. Bu o'quvchilarning tinglash-yozish-gapirish ko'nikmalarini kompleks shakllantiradi.

Quyidagi tadqiqotlar esse yozish va audio vositalarning samaradorligini tasdiqlaydi:

Muallif (yil) Tadqiqot mavzusi Natija

Brown (USA) Audio asosida esse yozish samaradorligi: Audio orqali yozilgan esselar ko'proq ijobiy natija ko'rstganini ko'rishimiz mumkin.

Nakamura (Japan) Multimodal ta'limda yozma ifoda: Audio orqali o'rgatish matnga nisbatan kuchliroq tahliliy fikr beradi

Ahmed (UK) Podkastlar asosida yozma savodxonlikni rivojlantirish: O'quvchilar tinglashdan keyin yozishda mustaqil fikrlashni oshirgan. Audio hikoya asosida yozilgan esselar shaxsiy ifodaga boy bo'lgan

5. Umumiy xulosa

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, audio materiallar asosida esse yozishni o'rgatish metodikasi nafaqat yozma nutqni rivojlantiradi, balki eshitib anglash, tahliliy yondashuv, obrazli fikrlash va shaxsiy pozitsiyani ifoda etish kabi ko'nikmalarni kompleks shakllantiradi. Bu metod interaktivlik, emotsional ta'sir va multimodal idrok asosida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Audio asarlar asosida esse yozishni o'rgatish metodikasini sinov tariqasida qo'llash, xorijiy tajribalarni o'rganish va tahliliy natijalarni umumlashtirish asosida quyidagi taklif va tavsiyalar berib o'tmoqchiman;

1. Ta'lim amaliyoti uchun takliflar:

1. Audio asarlarni dars jarayoniga tizimli kiritish:

Ona tili va adabiyot fanlarining yozma nutqga oid mavzulariga maxsus audio fayllar (hikoya, dramatisatsiya, podkast) moslashtirilgan holda joriy etilishi lozim.

Darsliklar bilan birga QR kodli audio materiallar yaratilsa, bu o'quvchining mustaqil tayyorgarligini ham yengillashtiradi. O'qituvchilar malakasini oshirish kurslariga multimodal yondashuvlar kiritilishi:

Pedagoglar uchun audio asosida yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha qisqa kurslar, vebinarlar va tajriba darslari tashkil etilishi lozim.

Raqamli platformalarda esse topshiriqlari uchun audio kirish materiallari bilan birga avtomatik baholovchi mexanizm joriy etilishi mumkin.

Audio asarlar asosida o'qitishning neyropsixologik ta'sirini tadqiq qilish. Eshitish orqali o'rganish miya faoliyatiga qanday ta'sir qilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi zarur. Bu, ayniqsa, eshituv orqali tez idrok qiluvchi bolalar uchun alohida dolzarbdir. Milliy adabiyot namunalari, dostonlar, hikoyatlar, zamonaviy nasr va she'riyat asarlarini audio shaklga keltirib, ta'limga integratsiya qilish taklif etiladi.

O'zbek tilida podkastlar, hikoya platformalari va dramatik asarlarning audio arxivini yaratish – o'quvchining lingvistik va madaniy idrokini oshiradi. Respublika miqyosida audio asosida esse yozish bo'yicha tanlovlar va olimpiadalar o'tkazilishi, metodik tajribalar almashinuvini faollashtiradi. Audio asarlar asosida esse yozishga o'rgatish nafaqat yozma nutqni, balki o'quvchilarning umumiy tafakkur madaniyatini, muloqot kompetensiyalarini va estetik didini shakllantiradi. Shunday ekan, bu metodika O'zbekiston ta'lim tizimida ham keng qo'llanishi lozim bo'lgan istiqbolli yondashuvlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-2025-yil Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida.2020-yil 14-dekabr 781-son

2.Kh-davron.uz

3.Arxiv.uz

4. Brown, A. (2021). Audio-Based Essay Writing in High School Curriculum. Cornell University.